



Oktyabr 2025

YEVROPA ITTIFOQI VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. 2025 yil oktabr oyida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston "Kuchaytirilgan hamkorlik va sheriklik to'g'risidagi bitim"ni (EPCA) imzoladilar. Ushbu bitim ikki tomonlama munosabatlarni yangi hamkorlik yo'nalishlariga kengaytiradi hamda savdo va iqtisodiy aloqalar uchun huquqiy-me'yoriy asosni sezilarli darajada takomillashtiradi.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston hamkorligining asosiy yo'nalishlari:

Siyosiy muloqot	Samarali boshqaruv sohasida hamkorlik		
Adliya va ichki ishlar	Demokratiya va inson huquqlari	Biznes va investitsiyalar sohasidagi hamkorlik	
Iqtisodiy va moliyaviy aloqalar	Savdo	Transport aloqalari	Raqamli rivojlanish
Energetika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi			
Atrof-muhit muammolari va iqlim o'zgarishi		Muhim xomashyo resurslari	Texnik yordam

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan o'zaro aloqalari 2019 yildagi Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo strategiyasi hamda 2023 yildagi Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo bilan aloqalarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shma yo'l xaritasi asosida shakllantirilgan. 2025 yil aprel oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo birinchi Sammitida Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi munosabatlar strategik hamkorlik darajasiga ko'tarildi.

SIYOSIY ALOQALAR

O'zbekiston hozirda 2016-yilda boshlangan keng qamrovli islohotlar dasturini amalga oshirmoqda. Ushbu dastur mamlakatni global iqtisodiyotga integratsiya qilish hamda quyidagi yo'nalishlarni yaxshilashga qaratilgan:

Ishbilarmonlik muhiti	Sud tizimi va xavfsizlik xizmatlari	Mehnat sharoitlari
Ma'muriy javobgarlik va samaradorlik	Inson huquqlari va samarali boshqaruv	

Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning islohotlar dasturini texnik va moliyaviy yordam orqali qo'llab-quvvatlaydi hamda inson huquqlari, ommaviy axborot vositalari erkinligi va samarali boshqaruv masalalarida muntazam muloqot olib boradi. Yevropa Ittifoqi islohotlar jarayonida jamoatchilik bilan maslahatlashuv va xalqaro me'yor hamda eng yaxshi tajribalarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi.

SAVDO IQTISODIY ALOQALAR VA O'ZARO BOG'LIQLIK

2024 yilda Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning **import bo'yicha uchinchi yirik (12,2%)** va **eksport bo'yicha ikkinchi yirik (7,2%) savdo hamkori bo'ldi**.

2024 yilda O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidan asosiy import mahsulotlari:

 Mashinasozlik va transport uskunalari (46.5%)	 Kimyoviy mahsulotlar va unga bog'liq tovarlar (22.5%)
--	---

Yevropa Ittifoqidan jami import hajmi: €3,959 million.

2024 yilda O'zbekistonning Yevropa Ittifoqiga asosiy eksport mahsulotlari:



Kimyoviy mahsulotlar (29.8%)



Mineral mahsulotlar (17.5%)



Tekstil (14.9%)



Rangli metallar (14.5%)

Yevropa Ittifoqiga jami eksport hajmi: €845 million (2023 yilga nisbatan 8.2% o'sish).

2021 yil aprel oyida O'zbekiston **Yevropa Ittifoqining Maxsus Preferensiyalar Tartibi Plus (GSP+)** tizimiga qo'shildi, **bu esa O'zbekistonga Yevropa Ittifoqi bozoriga kvotasiz va bojxona to'lovlarisiz kirish imkoniyatini beradi**. GSP+ tizimidan foyda olish uchun O'zbekiston quyidagi 27 ta asosiy xalqaro konvensiyani amalga oshirishga majburdir:



**Inson va mehnat
huquqlari**



**Iqlim va atrof-muhitni
muhofaza qilish**

Yevropa Ittifoqi shuningdek, O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi uchun texnik yordam ko'rsatmoqda. Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning so'nggi yutuqlaridan biri 2024 yil aprel oyida imzolangan Barqaror xom ashyo qiymat zanjirlari bo'yicha strategik hamkorlik to'g'risidagi o'zaro anglashuv memorandumidir.

Ushbu strategik hamkorlik quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

- **muhim xom ashyolarning barqaror qiymat zanjirlarini integratsiyalash;**
- **yetkazib berish zanjirlarining mustahkamligini oshirish;**
- **sheriklik loyihalarini moliyalashtirishni yo'lga qo'yish;**
- **mas'uliyatli va barqaror ishlab chiqarish hamda xom ashyo manbalarini rivojlantirish;**
- **ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kuchaytirish;**
- **tegishli qoidalarni ijro etish, kadrlar tayyorlash va malakani oshirish salohiyatini rivojlantirish.**

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan Mintaqalararo Aloqadorlik Kun Tartibi (Cross-Regional Connectivity Agenda) bo'yicha muhim ishtirokchilardan biridir. Ushbu tashabbus Yevropa Ittifoqini Markaziy Osiyo bilan bog'lash, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda uzoq muddatli farovonlik, hamkorlik va tinchlikni mustahkamlashni maqsad qiladi.

Dastur quyidagi to'rtta ustuvor yo'nalishga e'tibor qaratadi:



Transport:

Trans-Kaspiy transport yo'lagini mustahkamlash va mintaqalararo transport tarmoqlarini kengaytirish;



Raqamli soha:

yuqori tezlikdagi internet infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli savdoni qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash;



Energetika:

energetika aloqalarini yaxshilash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni tezlashtirish;



Savdo:

bojxona jarayonlarini uyg'unlashtirish va raqamlashtirish orqali chegaraoldi savdoni soddalashtirish hamda bozor integratsiyasini chuqurlashtirish

TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK

O'zbekiston uchun **2021-2027 yillarni o'z ichiga olgan Ko'p yillik indikativ dastur doirasida** Yevropa Ittifoqi **2021-2024 yillarda €76 million** ajratdi va 2025-2027 yillarda yangi ikki tomonlama dasturlar uchun yana €43 million ajratishni rejalashtirmoqda. Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan rivojlanish bo'yicha hamkorlik yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:



Demokratik boshqaruv va raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash



Inklyuziv, raqamli va yashil o'sish



Aqlli va ekologik toza agro-oziq-ovqat sektorini rivojlantirish

O'zbekiston shuningdek, Yevropa Ittifoqining qator mintaqaviy dasturlaridan hamda **Global Darvoza (Global Gateway)**ning asosiy moliyaviy vositasi bo'lmish **Barqaror rivojlanish bo'yicha Yevropa fondi Plyus (EFSD+) investitsiyalaridan** foyda ko'radi.